

**TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA
METODIK YORDAMNING O'RNI**

G'aniyeva Muttar Imomovna

Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi 37 - DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim – ta'lim tizimining mustahkam poydevori bo'lib, aynan shu davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida muvaffaqiyatga undovchi umuminsoniy xislatlari shakllana boshlaydi. Kichkintoyning shaxsiy faolligi ayniqsa, rasm chizish, qurish-yasash, musiqa va boshqa faoliyat turlarida takomillashib boradi. Bunda bolaning oson o'zlashtirishida faoliyat turlarining o'yin tarzida tashkillashtirilgani samarali natija ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tajriba,mahorat,kasbiy kompetensiya, tarbiyachi, ilmiy faoliyat, pedagogik tarbiyachi, bolani har tomonlama rivojlantirish.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek,



Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar o‘qish shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, shu kunlarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish uchun tarbiyachilarning malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ladi.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, ta’lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi kasbdoshlarini o‘sishiga yordam beradi. Tarbiyachi maktabgacha ta’lim tashkilotida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g‘oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo‘lgan ijodiy munosabatiga bog‘liq.

Kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishslashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi.

Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta’lim jarayonlarida mavjud bo‘lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan. «Mahorat», «malaka», «salohiyat» masalalari, faoliyat, shu bilan birgalikda, bir qator

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

faoliyatlarning birikumi M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, V.V.Krayevskiy, G.P.Шyedrovidskiy, V.V.Davidov va boshka pedagogika sohasining olimlari ilmiy asarlari asosini tashkil etgan.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Bunga quyidagilar kiradi:

- Bolaning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash.
- Aqliy qobiliyatini o'stirish.
- Milliy qadriyatimiz va ma'naviyatimizning g'oyaviy-aqliy tamoyillariga mos keluvchi e'tiqod va qarashlarini tarkib toptirish.
- Ona vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish. Yosh avlodda o'rtoqlik, do'stlik hissini halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olish lozim. Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak.

Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi quyidagi xususiyatlarda aks ettira olishi kerak.

- Nutqning aniqligi.
- Nutqning irodaviyligi.
- Nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib), faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislarga xos s'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqqa o'zga millatlarga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

xos so‘zlarning o‘rinsiz qo‘llanilishi), vulgarizm (harakat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rinli bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so‘zlash) so‘zlaridan xoli bo‘lishi va pedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishslash, o‘z-o‘zini

rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

Pedagogik kompetensiyalar-bilimlar, malaka va ko‘nikmalar hamda o‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo‘lgan motivatsiyaning uyg‘unlashgan majmuini o‘zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko‘nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni xam o‘z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachiik uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning ta’limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo‘ydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy bolalar bog‘chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi. Kasbiy mahoratning bir qismi sifatida tarbiyachining loyiha madaniyati ham katta o‘rin tutadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining loyihaviy faoliyati - bu tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan (muammo “tug‘dirish”, ma’lumot to‘plash va qayta ishslash, tajribalar o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) rivojlaniruvchi ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash usullaridan biridir. va mantiqiy fikrlash; maktabgacha ta’lim tashkilotining uslubiy faoliyati davomida va malaka oshirish kurslarida olgan bilimlarini birlashtiradi. Loyerfaoliyatining maqsadi - maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyat uchun sharoit yaratish, tarbiyachilar tomonidan kasbiy faoliyatda olingan bilim, ko‘nikma va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

malakalardan foydalanish. Tarbiyachilar tomonidan loyihalarni ishlab chiqish uchun mavzular, mini-loyihalar faoliyatning ijodiy yo‘nalishiga qarab mustaqil ravishda tanlanadi. Faoliyatning yakuniy bosqichida taqdimot o‘tkaziladi. Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo‘lib ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: Seminar - ijodiy darslar ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni yaratishga qaratilgan.

O‘yinlarni modellashtirish. Ishbilarmonlik va rol o‘ynash o‘yinlari haqiqiy jarayonni modellashtirishni o‘z ichiga oladi, bu davrda sun’iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida maqbul kasbiy qarorlar qabul qilinadi. Kollektiv muammolarni hal qilish, guruh muhokamasi yoki aqliy hujum; kasbiy mahoratni oshirish uchun kichik guruhlarda treninglar; o‘z-o‘zini tarbiyalash ishlaringning usullari, mакtabgacha ta’lim muassasasining innovatsion faoliyati natijalariga bag‘ishlangan ilmiy va amaliy konferensiyalar.



Pedagogik halqa - tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so‘nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o‘rganishga yo‘naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o‘z pozitsiyalarini dalil qilish ko‘nikmalarini yaxshilaydi,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to‘g‘riligini o‘rgatadi. Ushbu shakl ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlarini baholash mezonlarini taqdim etadi: Ushbu pedagogik konsepsiyada keltirilgan fikr va mulohazalar, yo‘nalish hamda takliflar bu eng avvalo ma’lum bir davr ichida o‘zimning ta’lim-tarbiya berish faoliyatimning sifat samaradorligini oshirish uchun qilinadigan ishlar sifatida ko‘rishimiz mumkin. Bugun tarbiyachining pedagogik kompetensiyalarini doimiy oshirib borishi, bu eng avvalo bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, ahloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishda asosiy omildir. Mazkur pedagogik konsepsiyada ko‘rsatilgan vazifalar, yo‘nalish va natijalarga erishish maqsadida men o‘zim uchun bir o‘quv yiliga rejalashtirilgan chora-tardbirlar rejamni ham tuzib chiqdim. Maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishning zamonaviy sharoitida tarbiyachining maqomi tubdan o‘zgarib bormoqda, uning ta’lim funksiyalari, shunga muvofiq, uning kasbiy va pedagogik kompetensiyasiga, uning kasbiy mahorat darajasi talablari o‘zgaradi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va rivojlantirishning zamonaviy tizimida o‘zining shaxsiy salohiyatini safarbar qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qodir bo‘lgan ijodkor, mahoratli tarbiyachi talab etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish - bu kasbiy, shuningdek, umumiyl insoniy munosabatlarning kombinatsiyasidir, buning natijasida nafaqat o‘quv jarayonini samarali boshqarish, balki vazifalarni bajarish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish mumkin bo‘ladi. Bu, shubhasiz, kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish va pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga ta’sir qiladi. Ta’limni rivojlantirishning ushbu bosqichida kompetensiyaga asoslangan yondashuv maktabgacha tarbiyachilar faoliyatida yetakchi yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar kasbiy kompetensiyasi - bu maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarning malaka vazifalarini aniq bajarish uchun zarur bo‘lgan tajriba, bilim ko‘nikmalari, texnika

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

va usullarni o'zlashtirish. Maktabgacha ta'lif tarbiyachisining kasbiy kompetentligi- mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

- Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

- Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- Psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog'lom psixologik.
- Muhitni yarata olish, tarbiyalanuvchilar va ta'lif jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

- metodik kompetentlik
- pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lif yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash; informatsion kompetentlik
- axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish; kreativ kompetentlik

- pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; innovatsion kompetentlik-pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lif sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiyl muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.
- Shaxsiy kompetentlik - izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.
- Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
- Ektremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mashg‘ulotda ta’lim berish orqali bolalarda maktabdagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o‘zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi. Mashg‘ulot paytida bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, hikoya qilinayotgan voqeядagi asosiy g‘oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Tayyorlov guruuhlarida mashg‘ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat standartlari. - T.:2018.
2. Uljaevna, U. F. (2020). Didactic games in preschool educational system. Problem sovremennoy nauki i obrazovaniya , (4-2 (149)), 27-29.
3. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(2), 326-329.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

4. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00358. X "Development and education of preschool children" ACADEMICIA. An